



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM QO'MITASI BUYRUG'I

Toshkent sh.

115-AF

2026-yil " 01 " Iyun

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-184-son Farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi "Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-184-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son qaroriga asosan Turizm qo'mitasining mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

Turizm qo'mitasi mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan Respublika (hududlararo) attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Attestatsiya komissiyasi)ning tarkibi **1-ilovaga** muvofiq;

Turizm qo'mitasi hamda uning hududiy boshqarmalari mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish uchun namunaviy savollar ro'yxati **2-ilovaga** muvofiq;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o'tadigan Qo'mita va hududiy boshqarmalar mansabdor shaxslarining ro'yxati **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Qo'mitada tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish bo'yicha attestatsiya **ikki oy muddatda** o'tkazilishi belgilansin.

3. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (M. Isabayev):

o'n kun muddatda Attestatsiya komissiyasi faoliyatini tashkil etishni;

Qo'mitaning tegishli tuzilmalari bilan birgalikda Attestatsiyani o'tkazish uchun zarur hujjatlar tayyorlanishini;

attestatsiya o'tkaziladigan sana va joy to'g'risida Komissiya a'zolari bilan kelishib, bu haqda Nizomda belgilangan muddatlarda va tartibda attestatsiyadan o'tadigan mansabdor shaxslarning xabardor qilinishini;

attestatsiya natijalari bo'yicha ma'lumotlarni Davlat nazorati tizimiga kiritilishini ta'minlasin.

4. Ma'muriy bo'lim (A. Shovkatov) maxsus guvohnoma blanklarini belgilangan tartibda xarid qilinishini ta'minlasin.

5. Raqamli tashabbuslar va sun'iy intellektni rivojlantirish bo'limi (A. Tuxtasinov):

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri turizm boshqarmalari mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish jarayonini "Zoom" dasturi orqali amalga oshirilishi hamda hududlardan qatnashadigan mansabdor shaxslarning onlayn ishtirok etishini;

attestatsiya jarayonining videokuzatuv moslamasi orqali yozib olinishini ta'minlasin.

6. Devonxona (Tursunov) mazkur buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalarga ijro uchun yetkazsin.

7. Buyruq ijrosini nazorat qilish rais o'rinbosari S. Bobokalonov zimmasiga yuklansin.

Rais



A. Aqqulov

**Turizm qo'mitasi mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatini
tekshirish huquqini berish yuzasidan Respublika (hududlararo) attestatsiya
komissiyasi
TARKIBI**

- | | | |
|----|--|---|
| 1. | Aqqulov Abdulaziz
O'rolboyevich | Qo'mita raisi,
komissiya raisi |
| 2. | Bobokalonov Suxrob
Ramazonovich | Rais o'rinbosari, komissiya a'zosi |
| 3. | Raximberdiyev Sardor
Rustamjon o'g'li | O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik
subyektlarining huquqlari va
qonuniy manfaatlarini himoya qilish
bo'yicha vakil devoni yetakchi
inspektori, komissiya a'zosi |
| 4. | Kamalov Sherzod
Farxadovich | O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi
Qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan
jamoatchilik nazorati bo'limi
boshlig'i, komissiya a'zosi |
| 5. | Raxmatullayeva Anora
Doniyor Qizi | "CITY PALACE" Mas'uliyati
cheklangan jamiyati rahbari,
komissiya a'zosi |
| 6. | Isabayev Murod
Turgunovich | Inson resurslarini rivojlantirish
va boshqarish bo'limi boshlig'i,
komissiya kotibi - ovoz berish
huquqiga ega emas |

*Izoh: Komissiya tarkibidagi a'zolar boshqa ishga o'tganda, lavozimidan ozod etilgan,
uning o'rniga yangi tayinlangan yoki lavozim vazifalarini bajarish yuklatilgan xodimlar
mazkur attestatsiya komissiyasi tarkibiga kiritiladi.*

**Turizm qo'mitasi hamda uning hududiy boshqarmalari mansabdor shaxslarini
tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan
attestatsiyadan o'tkazish uchun namunaviy savollar
RO'YXATI**

1. Attestatsiya qaysi normativ-huquqiy xujjatga asosan o'tkazilmoqda?
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.10.2022 yildagi 611-son qarori ilovalari bilan qanday Nizomlar va tartib tasdiqlangan?
3. Vakolatli organ tushunchasi va hozirgi vaqtdagi vakolatli organ nomi?
4. Nazorat qiluvchi organ tushunchasi?
5. Nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsi tushunchasi?
6. Tadbirkorlik subyekti tushunchasi?
7. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiya nima maqsadda o'tkaziladi?
8. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyaning asosiy tamoyillari nima?
9. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiya qancha muddatda o'tkazilishi kerak?
10. Attestatsiyadan nechta mansabdor shaxs o'tishi mumkin?
11. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyaning asosiy vazifalari?
12. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiya nima asosida tashkil etiladi va kim tomonidan o'tkaziladi?
13. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiya komissiyasi tarkibi?
14. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyada ishchi organ va komissiya kotibi kimlar?
15. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyada ishchi organ qanday funksiyalarni bajaradi?
16. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyaga qanday mansabdor shaxslar kiritilmaydi?
17. Attestatsiyadan o'tkaziladigan mansabdor shaxs Attestatsiyadan oldin Attestatsiyani o'tkazish to'g'risidagi buyruq bilan imzo qo'ydirilgan holda tanishtirilishi kerakmi va qancha muddat avval?
18. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan qaysi xolatlarda attestatsiyadan chetlashtiriladi va o'tmadi deb xisoblanadi?
19. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiya komissiya tarkibidan tashqari kim qatnasha olishi mumkin?
20. Attestatsiya komissiyasi tomonidan Attestatsiyadan o'tmagan deb hisoblangan mansabdor shaxs takroriy Attestatsiyaga qancha muddata qayta kirsa bo'ladi?

21. Qaysi holatlarda nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqi bekor qilinishi mumkin?

22. Attestatsiya komissiyasi tomonidan tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqi bekor qilingan mansabdor shaxs qayta Attestatsiyaga qancha muddatda kiritilishi mumkin?

23. Nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxslarining elektron reyestri Davlat nazorati tizimida kim tomonidan shakllantiriladi va yuritiladi?

24. Tekshirish huquqini beruvchi maxsus guvohnomaning raqami qanday shakllanadi?

25. Maxsus guvohnoma yo'qotilgan yoki foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelgan hollarda nima qilinadi?

26. Attestatsiya komissiyasining qaroridan norozilar kimga shikoyat qiladi?

27. Nazorat qiluvchi organlarning «xavfni tahlil etish» tizimlariga qo'yiladigan minimal talablar qaysi xujjatda belgilangan

28. «Xavfni tahlil etish» tizimi nima?

29. Ishlab chiqilgan «xavfni tahlil etish» tizimi asosida aniqlangan huquqbuzarlik xavfi qay darajada bo'lganida tadbirkorlik subyektiga nisbatan ta'sir choralarini qo'llashga asos bo'ladi.

30. Xavf darajasining tahlili qanday ma'lumotlarni o'rganish asosida amalga oshirilishi mumkin?

31. Xavf darajasi tahlili jarayonida tadbirkorlik subyektidan hujjatlar va axborotlar talab qilinishi mumkinmi?

32. Xavf darajasi tahlili nazorat qiluvchi organ tomonidan qanday muddatda va qancha tadbirkorlik subyektida o'tkaziladi?

33. Xavf darajasi qanday baholanadi?

34. Xavf darajasi ko'rsatkichlari qanday bo'ladi?

35. Sub-ko'rsatkichlar qanday baxolanadi?

36. Xavf darajasini baholash jarayoni qanday tartibda amalga oshirilishi lozim?

37. Amalga oshirilgan baholash natijasida aniqlangan xavf darajasining umumiy ballari asosida tadbirkorlik subyekti tomonidan huquqbuzarlik sodir etish xavfi qanday toifalarga tasniflanadi?

38. Xavfi yuqori toifani ta'riflab bering

39. Xavfi o'rta toifani ta'riflab bering

40. Xavfi past toifani ta'riflab bering

41. Baholash natijalariga muvofiq qaysi toifa tasnifidagi tadbirkorlik subyektida qonun buzilish holatlarining oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbirlari o'tkazilishi lozim?

42. Baholash natijalariga muvofiq qaysi toifa tasnifidagi tadbirkorlik subyektiga tekshiruvga tashabbus qilish mumkin?

43. Huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori tasnifidagi tadbirkorlik subyektida profilaktika tadbirlarini o'tkazmasdan va ularning natijasini kutmasdan qanday holatlar doirasida tadbirkorlik subyektida tekshiruv o'tkazish tashabbusi bilan chiqish mumkin?

44. Huquqbuzarlik sodir etish xavfi o'rtacha tasnifidagi tadbirkorlik subyektida tekshiruvga tashabbus qilsa bo'ladimi va qanday tartibda?

45. Huquqbuzarlik sodir etish xavfi past tasnifidagi tadbirkorlik subyektida tekshiruvga tashabbus qilsa bo'ladimi va qanday tartibda?

46. Xavf darajasi ko'rsatkichlarini Nizom ilovasiga muvofiq nomlab bering

47. Xavf darajasi ko'rsatkichlari Nizom ilovasiga muvofiq nechta sub-ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi

48. Davlat nazorati tizimini ta'riflab bering.

49. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi nima?

50. Tekshiruv nima?

51. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirish tartibi qaysi xujjatda belgilangan?

52. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobining yuritilishidan maqsadi?

53. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi kim tomonidan va qanday yuritiladi?

54. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirish ixtiyoriymi?

55. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobining elektron shakliga qanday kirs bo'ladi?

56. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobida tadbirkorlik subyektlarining qanday ma'lumoti bo'lishi lozim?

57. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobiga qanday ma'lumotlar kiritilmaydi?

58. Tekshirish boshlanishidan oldin kim nazorat qiluvchi organning mansabdor shaxsiga Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirish uchun elektron shaklini taqdim etadi?

59. Nazorat qiluvchi organning mansabdor shaxsi tekshirish boshlanishiga qadar Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobining elektron shakliga qanday ma'lumotlarni kiritishi lozim?

60. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobining elektron shakliga kiritilgan ma'lumotlar tegishli ravishda tasdiqlangandan so'ng ularni o'zgartirish imkoniyati bormi?

61. Qaysi xolatlarida tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirish natijasida yoki jarayonida tekshiruvchi mansabdor shaxs tekshirishga qo'yilmaydi?

62. Nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirish talablariga rioy etmasa ushbu tekshiruv qanday baholanadi?

63. Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirish bosqichlarini sanab va ta'riflab bering.

64. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi.

65. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari.

66. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining majburiyatlari.

67. Tadbirkorlik faoliyati subyekti huquqlarining ustuvorligi.

68. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari.

69. Tadbirkorlik subyektlarining qonunchilikda man etilmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish erkinligi kafolatlari.

70. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlari kafolatlari.

71. Tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaslik kafolatlari.

72. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining tijorat sirini va oshkor etilmagan axborotini muhofaza qilish.

73. Qanday tekshiruvlar elektron ro'yxatdan o'tishi shart?

74. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatga olmasdan o'tkazilgan tekshiruvlari qanday baholanadi?

75. Tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tekshiruvlarni o'tkazish muddatlari ko'pi bilan necha kundan oshmasligi kerak?

76. Tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq tekshiruvlarni o'tkazish muddatlari ko'pi bilan necha kundan oshmasligi kerak?

77. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishlarni amalga oshirayotgan mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talablar

78. Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash

79. Maxsus vakolatli organning asosiy vazifalari

80. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.09.2022 yildagi PQ-374-son qarori bilan qanday Nizom tasdiqlangan?

81. «Yagona davlat nazorati» axborot tizimi qaysi xujjatga asosan ishga tushgan?

82. Qayta tekshiruv tushunchasi?

83. Qayta tekshiruvga mustasno tekshiruvlar?

84. Tadbirkorlik subyektlari uchun profilaktika tadbirlari qanday shakllarda amalga oshiriladi?

85. Tadbirkorlik subyektlari nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslarini qanday hollarda tekshiruv o'tkazish uchun o'z hududiga qo'ymaslik huquqiga ega?

86. «Yagona davlat nazorati» axborot tizimidagi davlat nazorati funksiyalari reyestriga kiritilmagan funksiyalar bo'yicha tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazsa bo'ladimi?

87. Majburiy talab nima? Kim tomonidan ishlab chiqiladi va yuritiladi?

88. Tekshiruv dasturi nima?

89. Tezkor-qidiruv tadbirlari hamda jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida o'tkaziladigan taftish Vakolatli organ bilan kelishiladimi?

90. Tekshiruv o'tkazishda tadbirkorlik subyektlari huquqlari?

91. Tekshiruvlarni o'tkazishda tadbirkorlik subyektlarining majburiyatlari?

92. Tekshiruvlarni o'tkazishda nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining huquqlari?

93. Tekshiruvlarni o'tkazishda nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslari quyidagilarga majburiyatlari?

94. Nazorat qiluvchi organlar qanday asoslardan biri mavjud bo'lganda vakolatli organga tekshiruv o'tkazishni tashabbus qilishga haqli?

95. Dastlab nazorat qiluvchi organ tomonidan tekshiruv o'tkazilishi rejalashtirilayotgan tadbirkorlik subyektining nimasi o'rganilishi kerak?

96. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlarni o'tkazish tashabbusi qanday tadbirdan so'ng amalga oshiriladi.

97. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida qanday tekshiruvlarni o'tkazish tashabbusi, ular tomonidan qonunbuzilishlarga yo'l qo'yilishining oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlari belgilangan tartibda o'tkazmasdan amalga oshirish mumkin?

98. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida bir kunlik muddatda o'tkaziladigan tekshiruv o'tkazish tartibi.

99. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida bir kunda ko'p muddatda o'tkaziladigan tekshiruv o'tkazish tartibi.

100. Nazorat qiluvchi organning tuman (shahar) bo'linmasi tashabbusi bilan o'tkaziladigan tekshiruvlarni kelishish tartibi?

101. Tekshiruv dasturi nima asosida ishlab chiqiladi va kim tomonidan tasdiqlanadi?

102. Tekshiruv o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaror qanday asoslar mavjud bo'lganda qabul qilinadi?

103. Tekshiruv o'tkazish to'g'risida buyruq qaysi vaqt qabul qilinadi va tizimga kiritiladi?

104. Tekshiruv o'tkazish to'g'risida buyruqqa qanday ma'lumotlar kiritiladi?

105. Tadbirkorlik subyektida ikki yoki undan ortiq nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarni vakolatli organ bilan kelishish tartibi?

106. Tekshiruv boshlanishi haqida xabarnomani olgan tadbirkorlik subyektini tekshiruv o'tkazilishidan oldin yuridik manzili o'zgartirgan yoki boshqa tadbirkorlik subyektiga qo'shib yuborilgan hollarda nima bo'ladi?

107. Tadbirkorlik subyektini Axborot tizimi yoki pochta aloqasi orqali yuborilgan tekshiruv boshlanishi haqida xabarnomani shaxsan olmagan bo'lsa tekshiruv davom etadimi?

108. Nazorat qiluvchi organning mas'ul xodimlari tekshiruv boshlanishidan oldin tadbirkorlik subyektiga qanday ma'lumot taqdim etadi?

109. Tekshiruv qachon boshlangan xisoblanadi?

110. Tilxatga qanday ma'lumotlar kiritiladi?

111. Tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektining tekshiruv o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlarni olishdan bosh tortsa nima buladi?

112. Tadbirkorlik subyektini raxbari tilxat berishdan bosh tortsa nima bo'ladi?

113. Qanday mansabdor shaxslar tekshiruv o'tkazishga xaqli?

114. Nazorat qiluvchi organning tegishli tarkibiy bo'linmasi tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvga uning boshqa tarkibiy mansabdor shaxslari qanday tartibda jalb etilishi mumkin?

115. Tekshiruv o'tkazish jarayonida nazorat qiluvchi organning mansabdor shaxslari qaysi xujjat doirasida tekshiruv o'tkazadi?

116. Tekshiruv tadbirkorlik subyektining ish vaqtidan tashqari o'tkazsa bo'ladimi?

117. Tadbirkorlik subyektini faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarda uning so'roviga ko'ra kim qatnashsa bo'ladi ?

118. Tadbirkorlik subyektini faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarda uning so'roviga ko'ra jalb qilingan shaxslar yetib kelmasa nima bo'ladi?

119. Tekshiruv o'tkazish davri necha yil?

120. Tekshiruvlar qaysi xolatda ko'chirilishi mumkin?

121. Tekshiruvlar qaysi muddatga ko'chirilishi mumkin?

122. Tekshiruvlar qaysi xolatda uzaytirilishi mumkin?

123. Tekshiruvlar qaysi muddatga uzaytirilishi mumkin?

124. Tekshiruvlarni uzaytirish va ko'chirish tartibi?

125. Tekshiruvni tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tgan yoki faoliyat yuritayotgan manzilda o'tkazish imkoniyati bo'lmasa qanday yo'l tutiladi?

126. Tekshiruvlar natijalari bo'yicha qanday xujjat rasmiylashtiriladi?

127. . Tekshiruv dalolatnomasi necha nusxada rasmiylashtiriladi?

128. Tekshiruv qachon yakunlanadi?

129. Bir kunlik muddatda o'tkaziladigan tekshiruvda dalolatnoma qanday rasmiylashtiriladi?

130. Tekshirilgan tadbirkorlik subyektini tekshiruv dalolatnomasini olishdan va (yoki) uni imzolashdan bosh tortganda qanday harakatlar amalga oshirilishi kerak?

131. O'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha tuzilgan dalolatnoma tizimga qachon kiritiladi?

132. O'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha qo'llanilgan ta'sir chora va ta'sir choraning natijalari tizimga qachon kiritiladi?

133. Tekshiruv natijasida aniqlangan bank siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarga oid ma'lumotlar Axborot tizimiga qanday kiritiladi?

134. Tekshiruvda jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda qanday yo'l tutiladi?

135. Agar jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida bir nechta masala ko'rsatilib, ulardan hech bo'lmaganda bittasi kelishish tartibida tekshiruv o'tkazilishini talab qilsa, va qolgani xabardor bo'lsa tekshiruv qanday o'tkaziladi?

136. Kelishish tartibidagi va xabardor tartibidagi tekshiruvlarning farqi?

137. Tekshiruv o'tkandan so'ng tizimdan xabardor qilib ro'yxatdan o'tkaziladigan tekshiruvlar?

138. Profilaktika tadbirlarini o'tkazish tartibi qanday?

139. O'tkazilgan profilaktika tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar tizimga qachon kiritiladi?

140. Profilaktika tadbiri jarayonida tadbirkorlik subyektida kamchiliklar aniqlansa nima bo'ladi?

141. Profilaktika tadbirini o'tkazish uchun vakolatli organ bilan kelishish yoki uni xabardor qilish talab etiladimi?

142. Profilaktika tadbirlarini o'tkazish jarayonida nimaga yo'l qo'yilmaydi?

143. Tekshiruv tarbini bo'zganlik va noqonuniy tekshiruv farqi?

144. Tizimga ma'lumotlar o'z vaqtida va noto'g'ri kiritilganligi uchun kim javobgar bo'ladi?

145. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishning va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzish, xuddi shuningdek tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va (yoki) o'tkazish uchun qanday javobgarlik belgilangan?

146. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishning va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzish, xuddi shuningdek tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va (yoki) o'tkazish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa qanday javobgarlik masalasi belgilangan?

147. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilishga vakolatli organlar va ularning nazorat sohalari bo'yicha Turizm qo'mitasining nazorat sohasi qanday?

148. Cheklist nima?

149. Qanday holatda "Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga ma'lumotlar kiritilmasligi mumkin?

150. Nazorat qiluvchi organ rahbari (yoki rahbar o'rinbosari) tomonidan tekshiruv to'g'risida xabardor qilish uchun Axborot tizimiga tasdiqlangan xabarnoma kiritiladi. Mazkur xabarnomada qanday ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak?

151. Tekshiruv dasturi kim tomonidan tasdiqlanadi?

152. Tadbirkorlik subyekti rahbari (rahbar vazifasini bajaruvchi shaxs) tekshiruvda ishtirok eta olmagan, talab etilgan hujjatlar taqdim etilmagan yoki sohaviy mutaxassislar mavjud bo'lmagan taqdirda, tekshiruv nazorat qiluvchi organning harakatlari nimalardan iborat bo'ladi?

153. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimi natijalari asosida profilaktika tadbirlari va tekshiruvlarni o'tkazish qanday tartibda amalga oshiriladi?

154. Tekshiruv o'tkazishda tadbirkorlik subyektlari qanday huquqlarga va majburiyatlarga ega?

155. Tekshiruvlarni o'tkazishda nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsi qanday huquq va majburiyatlarga ega?

156. Nazorat qiluvchi organ “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi natijalariga asosan o‘tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishi haqida tadbirkorlik subyektini qanday tartibda xabardor qiladi?

157. Tekshiruv natijalari bo‘yicha hujjatlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan Axborot tizimiga qancha muddatda kiritilishi lozim?

158. PF-63-sonli Farmoni bilan 2026 yil 1 avgustdan boshlab tadbirkorlik subyekti faoliyatida tekshiruv o‘tkazishning qanday tartibi belgilandi?

159. “Biznes himoya” nima QR-kodi?

160. Davlat xizmatchisi davlat organi nomidan yoki o‘zining xizmat mavqeyidan foydalangan holda tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritadigan binoga nazorat yoki profilaktika tadbirini o‘tkazish maqsadisiz tashrif buyurishi yoxud tadbirkorlik subyektini boshqa joyga chaqirishi nima deb baholanadi?

161. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablardan kelib chiqib hamda davlat xizmatchisining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun tadbirkorlik subyekti bilan amalga oshirilgan muloqot asosli hisoblanadimi?

162. “Biznes himoya” QR-kodini joriy etish doirasida tadbirkorlik subyekti tomonidan nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsiga Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish elektron kitobini taqdim etish tartibi qanday bo‘ladi?

163. 2026-yil 1-iyuldan boshlab tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda bir vaqtning o‘zida ularga qanday xizmat avtomat tarzda bajariladi?

164. “Yagona davlat nazorati” axborot tizimidan ro‘yxatdan o‘tmagan yoki tekshiruv o‘tkazishga asos bo‘luvchi hujjatlarni tizimga kiritmagan yoxud maxsus guvohnomaga ega bo‘lmagan nazorat qiluvchi organning xodimi tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkazilgan tekshiruvlar qanday tekshiruv hisoblanadi?

165. Profilaktika tadbirini o‘tkazish uchun vakolatli organ bilan kelishish yoki uni xabardor qilish talab etiladimi?

166. Profilaktika tadbirlarida nimaga yo‘l qo‘yilmaydi?

167. Tekshiruv tartibini buzganlik va noqonuniy tekshiruv farqi?

168. Tizimga ma‘lumotlar o‘z vaqtida va noto‘g‘ri kiritilganligi uchun kim javobgar bo‘ladi?

169. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishning va moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzish, xuddi shuningdek tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va (yoki) o‘tkazish uchun qanday javobgarlik belgilangan?

170. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishning va moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzish, xuddi shuningdek tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va (yoki) o‘tkazish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa qanday javobgarlik masalasi belgilangan?

171. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2026 yildagi “Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash va nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-63-sonli Farmonida ayni bir tadbirkorlik subyekti bilan bir yil davomida ikki va undan ortiq marotaba asossiz muloqotga kirishgan davlat xizmatchisiga qanday choralar qo‘llanilishi belgilandi?

172. PF-63-sonli Farmoniga muvofiq davlat xizmatchisi hamda tadbirkorlik subyekti o‘rtasida bo‘lib o‘tgan nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqotni “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida hisobga olish va monitoringini yuritish qanday tartibda amalga oshirilishini tushuntirib bering.

**Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini
berish yuzasidan attestatsiyadan o'tadigan Qo'mita va hududiy
boshqarmalar mansabdor shaxslarining
RO'YXATI**

- | | | |
|-----|---|--|
| 1. | Islomov Nuriddin
Nurquvatovich | Turizm qo'mitasi Tadbirkorlar bilan ishlash
boshqarmasi boshlig'i |
| 2. | Zoirov Faxriddin Botir
o'g'li | Turizm qo'mitasi Tadbirkorlar bilan ishlash
boshqarmasi bosh mutaxassisi |
| 3. | Atabeyev Dautbay
Medetboy o'g'li | Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi |
| 4. | Umirzaqov Sardor
Samandarovich | Qashqadaryo viloyati Turizm boshqarmasi
Diversifikatsiya sho'basi bosh mutaxassisi |
| 5. | Sadinov Shahzod
Baxtiyor o'g'li | Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi |
| 6. | Qirg'izboyev Zoxidjon
G'ulomjonovich | Namangan viloyati Turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi |
| 7. | Hakimov Abduaziz
Xalimovich | Samarqand viloyati Turizm
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi boshlig'i |
| 8. | Taylakova Dildora
Ismatovna | Samarqand viloyati Turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi |
| 9. | Shodmonov Jahongir
Ulug'bekovich | Samarqand viloyati Turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi |
| 10. | Yo'ldoshev Abduxamid
Farxodovich | Sirdaryo viloyati Turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi boshlig'i |
| 11. | Abdurasulov Xaydar
Ziyadullayevich | Surxondaryo viloyati Turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi |
| 12. | Yo'ldoshev Abdiqodir
Choriyevich | Toshkent viloyati Turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi boshlig'i |
| 13. | Abduvaliyev Shahzod
Xabibulla o'g'li | Toshkent viloyati Turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi |
| 14. | Akmalov Sardor
Salmon o'g'li | Toshkent shahar turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi |
| 15. | Halkuziev Bahodir
Muhitdinovich | Toshkent shahar turizm boshqarmasi
Tadbirkorlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi |
| 16. | Murodov Alisher
Baxtiyor o'g'li | Toshkent shahar turizm boshqarmasi
Infratuzilmani rivojlantirish sho'basi boshlig'i |